

TASHQI MIGRATSIYA VA YALPI ICHKI MAHSULOT BOG`LIQLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Roziqova Sunbula Sevdiyor qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti bakalavriat

1-bosqich talabasi

roziqova2804@gmail.com

Shakhlo Davirova

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Bank ishi kafedrası dotsenti

davirova_shaxlo@tsue.uz

Annotatsiya: Bugungi globallashuv davrida iqtisodiy o`shishni barqarorlashtirish uchun barcha optimal va samarali usullardan keng foydalanilmoqda. Migratsiya ham ana shunday iqtisodiy o`shishni ta`minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Migratsiya mamlakatlarning YaIMiga bir nechta omillarga bo`g`liq holda ta`sir qiladi va ijobiy hamda salbiy holatlarni o`z ichiga oladi. Migratsiya ba`zi mamlakatlarda daromadning asosiy manbayi sifatida qaralsa, ayrim davlatlar esa migratsiyani iqtisodiyotni orqaga tortuvchi omil sifatida ko`rishadi. Ushbu jarayonining iqtisodiyotga ayniqsa YaIM ga ta`sirini ko`plab iqtisodchi olimlar uzoq yillardan buyon tadqiq qilib turlicha fikrlar bildirishmoqda.

**Kalit so`zlar:** migratsiya, YaIM, OIM, Xalqaro migratsiya tashkiloti, immigrantlar, iqtisodiy o`shish

KIRISH

Migratsiya - bu insonlarning bir hududdan boshqa hududga o`qish, ishlash, doimiy yashash va boshqa turli sabablarga ko`ra ko`chib o`tish jarayoni hisoblanadi. Bu harakat ichki ya`ni, mamlakat ichidagi bir hududdan boshqa huduga ko`chish yoki tashqi bu- bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o`tish jarayoni bo`lishi mumkin. Migratsiya jarayoni bugungi kunda uzluksiz davom etayotgan va harakatdan to`xtamayotgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni tahlil qilish orqali migratsiyaning qanchalik muhimligini ko`rib chiqishimiz mumkin. Ushbu maqolada shu to`g`risida tadqiqot qilgan olimlar fikrlari ko`rib chiqiladi.

USULLARI

Maqolaning maqsadi ilgari ushbu sohani o`rgangan olimlarning fikrlarini tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni tushunib yetish. Oldingi tadqiqotlarni tushunib biz o`rganilishi kerak bo`lgan sohani tushunishimiz jarayonni turlicha tarafdin o`rganishimiz mumkin.

MUHOKAMA

Migratsiya jarayoni Markaziy Osiyo va Yevropa mamlakatlari uchun uzoq vaqlardan beri mavjud bo'lgan muhim hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda mintaqada 100 milliondan ko'p bo'lgan muhojirlar mavjud bu esa butun dunyo muhojirlarining uchdan bir qismini tashkil etadi, ya'ni har besh kishidan biri boshqa mamlakatga ketishni xohlashini bildiradi. Iqlim o'zgarishi, demografik muammolar va mojarolar migratsiya darajasining ortib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon jadal o'sishda davom etar ekan, barcha tomonlar uchun migratsiyadan keladigan manfaatlarni oshirish maqsadida uzoq muddatli, muvofiqlashtirilgan va ilmiy asoslangan siyosat zarur bo'ladi. Bu savdo va investitsiyalarni rivojlantirishdan tortib, unumdorlikni oshirish, ko'nikmalarni shakllantirish va qashshoqlikni kamaytirishgacha bo'lgan yo'llarni qamrab oladi. Iqtisodiy migrantlar va qochqinlar, mehnatga layoqatli aholisi kamayib borayotgan mamlakatlarda (masalan G'arbiy Yevropa) mehnat bozoridagi bo'shliqlarni to'ldirishga juda katta yordam bera oladi. Migratsiya ko'pincha yuqori daromad va yaxshiroq hayot sifati sari olib boruvchi eng ishonchli va samarali yo'ldir. Migrantlar chetga chiqishi orqali o'z mamlakatidagidan ikki barobar ko'proq daromat qilishi mumkin. Xalqaro migratsiya tashkiloti 1951-yilda hukumatlararo tashkilot sifatida tashkil etilgan. XMT o'z faoliyatida insonparvar va tartibli migratsiya muhojirlarga ham, ularni qabul qiluvchi jamiyatga ham foyda keltirishi kerak degan fikrni ilgari suradi. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (OIM) tomonidan 2015-yilda e'lon qilingan hisobotda Sidney, London, Nyu-York kabi shaharlarda aholining uchdan biridan ko'prog'ini immigrantlar, Bryussel va Dubayda esa yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. OIM hisob kitobiga ko'ra, xalqaro migrantlarning eng ko'p qismi quyidagi 10 ta mamlakatda istiqomat qiladi: Avstraliya, Kanada, AQSH, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, Rossiya Federatsiyasi, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari.

Migratsiya va uning iqtisodiyotga ta'siriga oid ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan va bu tadqiqodchilar orasida Nobel mukofoti sovrindorlari ham mavjud. Ulardan biri David Card migratsiyaning mehnat bozori va iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rgangan.



David Card

Zamonaviy mehnat iqtisodiyoti sohasida yetakchi olimlardan biri bo'lib 2021-yilda Nobel memorial mukofotiga sazovor bo'lgan. Queen's universitetida bakalavr, Princeton universitetida iqtisodiyot bo'yicha magistr va doktorlik darajasini qo'lga kiritgan (1983). Nobel mukofotidan tashqari o'z sohasi bo'yicha ko'plab boshqa mukofotlarni ham qo'lga kiritgan.

David Cardning migratsiya bo'yicha ilmiy maqolalari quyidagilar: "Immigration and Inequality"(2009); "Is the New Immigration Really so bad" (2005); "Immigration, Wages and Amenities"(2009) va boshqalar.

Cardning "Immigration and Inequality" ilmiy maqolasi AQSHdagi muhojirlik va ish haqi tengsizligini tahlil qiladi. Maqolaning bosh maqsadi - muhojirlar oqimining mehnat bozoriga va ijtimoiy tengsizlikka ta'sirini o'lchashga harakat qilishdir.

"Immigratsiya iqtisodchilar orasida uzoq vaqtdan beri bahsli mavzu bo'lib kelmoqda. Bu masala 1960-yillarda deyarli yo'qolgan edi, biroq so'nggi uch o'n yillikda immigrantlarning oqimi oshgani sababli ushbu mavzuga bo'lgan professional qiziqish yana ortdi. Yangi immigratsiya e'tiborni jalb qilmoqda, bir tomondan, uning hajmi katta – ushbu o'n yillikning birinchi yarmida yiliga taxminan 1,25 million kishi – boshqa tomondan esa, uning tarkibi sababli. " ¹

Card ushbu tadqiqotida Aqshda ish haqi tengsizligiga sabab bo'layotgan asosiy omillar haqida fikrlar yuritgan. Uning fikricha AQSHga ko'chib kelayotgan immigrantlar ko'pincha o'rta ma'lumotli yoki umuman ma'lumoti yo'q va hujjatsiz kelganlardir. Bu esa ko'chib kelayotganlarning ko'p qismi o'rta qatlamda ishlaydiganlar bilan raqobatdosh bo'lishini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra Filadelfiya va Detroytda immigrantlar ulushi 10 % ni tashkil etsa, bu ulush Los-Angelesda 50 %gacha farqlanishi mumkin. Biroq, Jorj Borjas, Richard Friman va Lourens Kats ta'kidlagandek, shaharlararo taqqoslashlar muammoning yechimi emas, joylardagi ish haqlari qanchalik farq qilishiga qarab immigrantlarning harakatlanishi mahalliy aholi imkoniyatlariga ularning ta'sirini aniqlashda yordam berishi mumkin.

"Agar immigrantlarni ham umumiy aholi tarkibiga qo'shib hisoblanganda, ularning ish haqi tengsizligiga ta'siri aniq ijobiy bo'ladi. Immigrantlar, odatda, mehnat bozoridagi taqsimotining yuqori va past qismlarida to'plangan bo'ladi. Immigrantlar orasida ham rezidual ish haqi tengsizligi mahalliyarlarga qaraganda yuqoriroqdir. Oddiy bir hisob-kitob shuni ko'rsatadiki, 1980 va 2000 yillar oralig'ida umumiy ish haqi tengsizligining ortishiga immigrantlarning mavjudligi taxminan 5 foiz ulush bilan ta'sir ko'rsatgan." ²

Migartsiya past malakali ishchilarga bosim o'tkazishi mumkin, lekin bu tas'sir mahalliy mehnat bozorlari cheklangan doirada ishlagani uchun umumiy ish haqi strukturasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Card shuni ta'kidlaydiki, muhojirlar oqimi ish haqi tengsizligining o'sishiga sabab bo'ladigan asosiy omil emas. Chunki 1980-yildan beri kuzatilayotgan ish haqi tengsizligi o'sishiga nisbatan immigrantlar ta'siri juda kichik. Uning fikricha, texnologik taraqqiyot va ta'lim darajasidagi tafovutlar ish haqi farqlariga ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda.



Michael Clemens

Michael Andrew Clemens - xalqaro migratsiya va global iqtisodiy rivojlanish sohalarida taniqli Amerikalik iqtisododchi. U 1972-yilda tugʻilgan boʻlib, hozirda George Mason universitetida iqtisodiyot professori va Peterson Institute for International Economics (PIIE) da katta ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, u Center for Global Developmentda 20 yil xalqaro migratsiya boʻyicha tadqiqot dasturini boshqargan.

Michael Clemens migratsiya siyosatining iqtisodiy samaradorligini targʻib qiladi. Uning tadqiqotlari koʻplab siyosatchilar va xalqaro tashkilotlar tomonidan eʼtirof etilgan.

U migratsiya cheklovlarini yumshatish orqali nafaqat migrantlar, balki ularni qabul qiluvchi mamlakatlar ham foyda koʻrishini taʼkidlaydi. Clemensning migratsiyaga oid muhim maqolalaridan biri “Economics and Emigration: Trillion-Bills on the Sidewalk?” (2011)

Ushbu maqola xalqaro migratsiyaning global iqtisodiyotga taʼsiri haqida chuqur tahlil qiladi.

“Global iqtisodiyotdagi eng yirik buzilishlar sinfini nima tashkil etadi? Bu savolga javoblardan biri – kambagʻal mamlakatlardan emigratsiyaga qoʻyilgan qattiq cheklovlardir. Biroq, ushbu buzilishlarning taʼsiri iqtisodiyot fanida deyarli oʻrganilmagan. Migratsiya iqtisodiyoti odatda boshqa yoʻnalishga – immigratsiyaga eʼtibor qaratadi, yaʼni odamlarning harakati migrantlarni qabul qilayotgan mamlakatlarga qanday taʼsir qilishini oʻrganadi. Emigratsiyaning taʼsiri esa nisbatan eʼtibordan chetda qoladi.

Past daromadli mamlakatlarda juda koʻp odamlar oʻz yurtlaridan koʻchib ketishni xohlashadi, lekin bunga qodir emaslar. Gallup Jahon soʻroviga koʻra, eng kambagʻal davlatlar toʻrtlik (kvartil) guruhidagi kattalarning 40 foizdan ortigʻi agar imkon boʻlsa, boshqa mamlakatga doimiy koʻchib oʻtishni istaganini bildirgan, bu koʻrsatkich Gayana va Syerra-Leone kabi mamlakatlarda 60 foiz yoki undan yuqori boʻlgan (Pelham va Torres, 2008; Torres va Pelham, 2008).”³

Clemensning fikricha, tadqiqotchilar savdo, kapital oqimi va migratsiyaga qoʻyilgan turli cheklovlarni yoʻq qilishdan olinadigan foydani baholash uchun jahon iqtisodiyoti modellari yaratganlar. Maqolada keltirilishicha, tadqiqotlarning tafsilotlariga chuqur kirmasdan ham umumiy tendensiya yaqqol va hayratlanarli: migratsiya cheklovlarini yoʻq qilishdan olinadigan foyda boshqa turdagi cheklovlarni yoʻq qilishdan olinadigan foydadan bir yoki ikki pogʻona (yaʼni 10-100 barobar) katta. Savdo va kapital harakati cheklovlarini yoʻq qilishdan olinadigan foyda jahon YaIMining atigi bir necha foiziga teng deb baholansa, mehnat mobililigiga qoʻyilgan

cheklovlarni yo‘q qilishdan olinadigan foyda ko‘pincha jahon YaIMining 50–150 foizi atrofida bo‘ladi.

Clemens hisobiga ko‘ra, agar insonlarga rivojlangan davlatlarda ishlashga ruxsat berilsa, global daromad trillion dollarga yetishi mumkin. Maqolada keltirilgan umumiy fikrlarga ko‘ra, ishchi qayerda yashashi u qanchalik pul topishini aniqlovchi eng muhim omillardan biri. Masalan bir ishchi rivojlangan davlatlardan birida ishlaganida o‘z vatanidagidan 2-10 barobargacha ko‘p daromad qilishi mumkin. Clemensning umumiy xulosasi haqida aytadigan bo‘lsak: “ Insonlarning erkin harakati — iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi eng kuchli vositalardan biridir, lekin migratsiya siyosatidagi qat’iy cheklovlar bu imkoniyatdan foydalanishga yo‘l qo‘ymayapti. Shu bois, global tengsizlik va kambag‘allikka qarshi kurashishda migratsiya eng samarali vositalardan biri sifatida e’tirof etilishi lozim.”



³Michael A. Clemens is a Senior Fellow, Center for Global Development, Washington, D.C., and a Visiting Scholar, Department of Economics and the Wagner School of Public Policy, New York University, New York **Jonathan Portes**

Buyuk Britaniyalik yetakchi iqtisodchilardan biri bo‘lib, migratsiya, mehnat bozori, fiskal siyosat, va Brexitnin iqtisodiy tas‘iri bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan. U hozirda King’s College London universitetida Iqtisodiyot va Davlat siyosati professori hamda “UK in a Changing Europe” dasturining katta ilmiy xodimi hisoblanadi.

Jonathan Portes migratsiyani zamonaviy iqtisodiy va demografik muammolarga yechim sifatida ko‘radi. Portes Buyuk Britaniyada mehnatga layoqatli aholining kamayishi va tug‘ilish darajasining pastligi sababli migratsiyani zarur deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, 2000-yillardan beri ish o‘rinlarining o‘sishi asosan chet elliklar hisobiga bo‘lgan. Agar migratsiya cheklansa, iqtisodiy o‘shish sekinlashadi va davlat moliyasi bosim ostida qoladi.⁴

Portesning migratsiya bo‘yicha asosiy tadqiqotlaridan biri bu- “The Economics of Migration”(2019) .Bu maqolada Portes migratsiyaning iqtisodiy ta‘sirini , xususan, mehnat bozori va ijtimoiy siyosatga ta‘sirini tahlil qiladi.

“Migratsiyaning iqtisodiyotga ta‘siri mahalliy aholining ish joylari va ish haqlarigagina taalluqli emas. Xuddi savdoning iqtisodiy ta‘siri ham faqat arzon import mahsulotlari narxlarining pasayishidagina emas — bu o‘z ichiga raqobatning oshishi, texnologik uzatish, xalqaro ta‘minot zanjirlarining rivojlanishi kabi jihatlarni ham oladi. Migratsiyaning iqtisodiyotga boshqa yo‘llar bilan ta‘siri bo‘yicha qiziqish ortib bormoqda va bu borada muhojirlarning innovatsiyalarga hissa qo‘shishini ko‘rsatadigan dalillar bazasi shakllanmoqda (masalan, muhojirlar patent olish ehtimoli yuqori, bu esa mahalliy aholining patent faoliyatini ham oshiradi).”⁵

“Va haqiqatdan ham, boshqa omillar bir xil bo‘lsa, migratsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda o‘shir sur‘ati tezroq bo‘lishi kuzatilmoqda (buni tasdiqlovchi tadqiqotlar qatoriga Ekrama Boubtane, Jan-Kristof Dyumon va Kristofer Raultning 2016-yildagi Oxford Economic Papers maqolasi, hamda Francesc Ortega va Jovanni Perining 2014-yilda Journal of International Economics jurnalida chiqqan maqolasi kiradi). Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotchilari tomonidan 2016-yilda o‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, muhojirlar ulushi kattalar aholisi tarkibida 1 foizga oshsa, bu jon boshiga YaIM va mahsuldorlikning taxminan 2 foizga oshishiga olib keladi. (hayratlanarli tarzda, yuqori va past malakali migratsiyaning umumiy ta‘siri o‘rtasida sezilarli farq yo‘q. Biroq taqsimot bo‘yicha ta‘sirlar sezilarli darajada farqlanadi — yuqori daromadli kishilar, ayniqsa, past malakali migratsiyadan ko‘proq foyda ko‘radi.)”-Portes shu kabi fikrlari bilan migratsiyaning bir qancha ijobiy ta‘sirlari borligini o‘z maqolasida keltirgan.

Portesning bu maqolasidagi asosiy maqsadi -migratsiyaning iqtisodiyotga ta‘sirini aniq , empirik dalillarga asoslanib baholash hamda keng tarqalgan noto‘g‘ri tushunchalarni inkor etishdir.

U migratsiya ish haqlarni kamaytiradi degan fikrni rad etadi, ayniqsa mahalliy ishchilar orasida bunday ta‘sir minimal darajada ekanligini ta‘kidlaydi. Past malakali mahalliy ishchilarga qisqa muddatli ta‘sir bo‘lishi mumkin, lekin uzoq muddatda bu sezilarli emas deb aytadi. Portes migratsiyani cheklash o‘rniga, uni samarali boshqarish, ya‘ni migrantlarni jamiyatga integratsiyalash, til va malaka dasturlari orqali ularning salohiyatini ochish tarafdori ekanligi ko‘rishimiz mumkin.

NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan uchala olim ham migratsiya masalasini chuqur o‘rganib chiqqan, ko‘plab tadqiqot va izlanishlari orqali migratsiyaning iqtisodiyotga, YaIMga ta‘sirini turli faktlar bilan o‘z maqolalarida keltirib o‘tishgan. Uchala olimning fikrlaridagi o‘xshashliklardan biri bu -migratsiyaning iqtisodiyotga salbiy ta‘siri bo‘rttirilgani, aksincha, umuman olganda foydali bo‘lgan jarayon ekanini ta‘kidlaydilar. Ular uchulasi ham migratsiya iqtisodiy o‘shirga, ishchi kuchi ta‘minotiga va mahsuldorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan. Ular ishlarini dalillarga asoslangan, empirik va mikro ma‘lumotlar asosida olib boradi. Masalan, Card o‘z tadqiqotlarida tabiiy eksperimentlar (Mariel Boatlift), Clemens katta hajmli statistik modellardan, Portes esa real siyosat o‘zgarishlarining iqtisodiy oqibatlarini o‘rganadi. Har uchala olim migratsiyani to‘shir emas, balki samarali boshqaruv tizimlari yaratish tarafdori. Bu — migratsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish, ijtimoiy integratsiyani yaxshilash orqali amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, David Card , Michael Clemens va Jonathan Portesning tadqiqotlari - migratsiyaga nisbatan jamoatchilikdagi , siyosatchilardagi va

iqtisodchilardagi an'anaviy salbiy qarashlarni qayta ko'rib chiqishga turtki beradi. Ularning har biri o'ziga xos uslubda bir-birini to'ldiradi va migratsiya jarayoninig kompleks ko'p qirrali hamda foydali jihatlarini ochib beradi. Ularning fikricha-YaIMga ijobiy ta'sir qiladi, lekin uzoq muddatda: Migratsiya darhol emas, balki vaqt o'tishi bilan YaIMni oshiradi, chunki u ishbilarmonlik muhitini kengaytiradi va iste'mol darajasini oshiradi. Migratsiya qisqa muddatda kichik ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, uzoq muddatda ishchi kuchining optimal taqsimlanishi, iste'mol bozorining kengayishi va mehnat unumdorligining oshishi orqali YaIMni oshiradi. Olimlar ushbu jarayonga salbiy siyosiy munosabat, populizm va noto'g'ri axborot siyosatining asosiy to'siq ekanini ta'kidlashadi.

Foydalanilgan adabiyot va saytlar:

1."Immigration and Inequality"

<https://davidcard.berkeley.edu/papers/immigration-and-inequality.pdf>

2."Is the New Immigration Really So Bad?"

https://www.nber.org/system/files/working_papers/w11547/w11547.pdf

3."Economic Aspects of Immigration" (Minneapolis Fed)

<https://www.minneapolisfed.org/->

/media/files/news_events/sdd/card_immigration_sdd.pdf

4."Economics and Emigration: Trillion-Dollar Bills on the Sidewalk?"

<https://www.cgdev.org/publication/economics-and-emigration-trillion-dollar-bills-sidewalk-working-paper-264>

5. to'g'ridan-to'g'ri:

https://www.files.ethz.ch/isn/132541/file_Clemens_Economics_and_Emigration_FIN_AL.pdf

6.Intervyu: "The Economics of Expanding Immigration" (AEI)

<https://www.aei.org/economics/the-economics-of-expanding-immigration-my-long-read-qa-with-michael-clemens/>

7."The Economics of Migration" (Contexts Journal)

<https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/1536504219854712>

8."Immigration and the UK Economy after Brexit" (Oxford Review of Economic Policy)

<https://academic.oup.com/oxrep/article/38/1/82/6514758>

9."The economic impacts of immigration to the UK" (CEPR/VoxEU)

<https://cepr.org/voxeu/columns/economic-impacts-immigration-uk>

10.The Economist — "A world of free movement would be \$78 trillion richer"

<https://www.economist.com/the-world-if/2017/07/13/a-world-of-free-movement-would-be-78-trillion-richer>

11.Reason — "When We Reject Immigrants, We Reject Trillions of Dollars in Wealth"

<https://reason.com/2021/09/09/when-we-reject-immigrants-we-reject-trillions-of-dollars-in-wealth/>

12.JSTOR — “The economic impact of Brexit-induced reductions in migration”

<https://www.jstor.org/stable/48539451>

13. World Bank (2023) – The Journey Ahead: Supporting Successful Migration in Europe and Central Asia

<https://www.worldbank.org>

14. World Bank Migration and Remittances Data

<https://www.knomad.org/data>

15.International Organization for Migration (IOM) – World Migration Report

<https://www.iom.int/world-migration-report-2022>

16. UN DESA (United Nations Department of Economic and Social Affairs) – International Migration Stock

<https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock>

17. OECD (2022) – International Migration Outlook

<https://www.oecd.org/migration/international-migration-outlook-1999124x.htm>

18. ILO (International Labour Organization) – Labour Migration Statistics

<https://ilostat.ilo.org>

19.ChatGPT AI